



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



JINOYATDA ISHTIROKCHILIK TUSHUNCHASI, TURLARI VA SHAKLLARI

Dauletbaeva Aynur Baxramovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

E-mail: dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi, uning o'ziga xos belgilari, ishtirokchilik turlari va shakllari haqida, shuningdek, jinoyat ishtirokchilarining javobgarlik doirasi va jinoyatga daxldorligi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *jinoyatda ishtirokchilik, ishtirokchilik turlari, ishtirokchilik shakllari, bajaruvchi, qasd, javobgarlik doirasi, jinoyatga daxldorlik, jazo tayinlash.*

Jinoyat huquqi bir qancha institut va subinstitutlardan tashkil topgan. Bunday institutlarning ichida o'z o'rniga ega bo'lganlaridan biri jinoyatda ishtirokchilik hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat Kodeksida jinoyatda ishtirokchilik tushunchasiga ta'rif berilgan. Shu bilan birga ishtirokchilik turlari, shakllari, javobgarlik doirasi va jinoyatga daxldorlik kabi normalar kiritilgan. JK 27-moddasiga muvofiq –ikki yoki undan ortiq shaxslarning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin, jinoyatda ishtirokchilikning obyektiv va subyektiv bog'liqligi mavjud.

Obyektiv belgilari:

- ✓ jinoyat sodir etishda ikki yoki undan ortiq shaxsning qatnashishi
- ✓ guruh a'zolarining jinoyat sodir etishda birgalikta harakat qilishi[1]

Huquqshunoslardan biri M.H.Rustamboyev ishtirokchilik bo'yicha quyidagicha fikr bildirgan: jinoyatda ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatlarning yuqori ijtimoiy xavfliligi shu bilan shartlanadiki, bunday holatlarda jinoiy-huquqiy muhofaza obyektlariga sezilarli katta zarar yetkaziladi, jinoiy faoliyat yanada mustahkamroq berkitiladi, bu esa huquq muhofazasi idoralarining uni o'z vaqtida fosh etish va oldini olish bo'yicha ishini qiyinlashtiradi[2].

Jinoyatni ishtirokchilikda sodir etilgan deb topish uchun o'ziga xos belgilari mavjud.

Ular quyidagicha:

- jinoyatni sodir etishda ikki yoki undan ortiq shaxslarning ishtirok etganligi;
- jinoyat subyektlari o'rtasida obyektiv va subyektiv bog'liqlikning mavjud ekanligi;
- Jinoyatda ishtirokchi sifatida qatnashayotgan shaxslarning aqli rasoligi va ularning jinoyat subyekti yoshiga yetganligi.

Jinoyatda ishtirokchilikning yana bir maxsus belgisi ishtirokchilik faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlarda bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida jinoyat ishtirokchilari sifatida bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ko'rsatilgan.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Jinoyatni sodir etishda bevosita to'la yoki qisman sodir etgan yoxud Jinoyat Kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib, jinoyat sodir etgan shaxs bajaruvchi deb topiladi. Bajaruvchining harakatlari to'g'ri qasd yoki egri qasd bilan xarakterlanadi. Shuningdek jinoyat huquqida eksess bajaruvchi tushunchasi ham bor. Eksess bajaruvchi bu-bajaruvchining boshqa ishtirokchilarning qasdi bilan qamrab olinmagan, boshqa bir jinoyatni sodir etishi. Masalan bajaruvchi JK 169-moddadagi o'g'rilik jinoyatini qaysidir uyda sodir qilayotganda uyning egasi to'satdan kelib qoladi va bajaruvchi uni o'ldirib qo'yadi. Bu yerdagi ishtirokchilikda umumiy qasd mulkni talon-taroj qilishga qaratilgan edi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deb topiladi. Tashkilotchi, odatda, ishtirokchilarni yig'adi, uchrashtiradi, ko'rsatmalar beradi, qurollar bilan ta'minlaydi, jinoyat sodir qilishning qulay usullari yuzasidan tegishli maslahatlarni berish bilan cheklanib, jinoyatning obyektiv tomonini ifodalovchi harakatlarda bevosita ishtirok etmaydi. Jinoyatning tashkilotchisi jinoyat sodir etilishini tashkillashtiradi va jinoyatni sodir qilayotganlarning harakatlariga rahbarlik qiladi.

Jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs esa dalolatchi deb topiladi. Dalolatchi boshqa bir shaxsni jinoyat sodir etishga qiziqtirayotganligini biladi, shuni istab harakat qiladi.

U asosan boshqa shaxslarda jinoyat sodir etish xohishini uyg'otadi. Bu turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun: sovg'alar berish, qo'rqitish, har xil vadalar berish. Dalolatchilik subyektiv tomondan to'g'ri qasddan sodir etiladi.

Jinoyat sodir etilishiga o'z maslahatlari, ko'rsatmalari bilan, vositalar berish yoki to'siqlarni yo'qotish bilan ko'maklashgan, shuningdek jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shuningdek bunday narsalarni olish va o'tkazish to'g'risida oldindan va'da bergan shaxs yordamchi deb topiladi.

Jinoyat sodir etishda yordam berish jismoniy va ruxiy kabi ikki usulda bo'lishi mumkin.

Jismoniy yordam berish bu-jinoyat sodir qilayotganda to'siqlarni olib tashlash, qurollarni yashirishga yordam berish.

Ruxiy yordam berish bu-maslahatlar, ko'rsatmalar berish, qurol va vositalarni yashirishga, olish va o'tkazish to'g'risida oldindan va'da berish.

Jinoyatda ishtirokchilik shakllari:

Ishtirokchilikning turlari bilan bir qatorda, uning alohida shakllari ham mavjud. JK 29-moddasi 1-qismiga asosan, jinoyatdagi ishtirokchilik shakllari sifatida:

- Oddiy ishtirokchilik;
- Murakkab ishtirokchilik;
- Uyushgan guruh;
- Jinoiy uyushma tan olinadi[3].

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi oddiy ishtirokchilik deb topiladi. Ishtirokchilikning mazkur shaklida ishtirokchilarning jinoyat sodir etishdan oldin til biriktirish imkoniyati bo'lmaydi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi murakkab ishtirokchilik deb topiladi. Ishtirokchilikning bu shaklida esa ishtirokchilar jinoyat sodir etishni boshlashdan oldin til biriktirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borishi uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi. Ushbu ishtirokchilik shakli o'zining oldindan til biriktirilishi, vazifalarning taqsimlanishi, bir qancha jinoyat sodir etish maqsadida tuzilganligi bilan xarakterlanadi.

Jinoiy uyushma–jinoyatda ishtirokchilikning eng xavfli turi hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi. Jinoiy uyushmaning asosiy belgilaridan biri uning yuqori darajada tashkillashtirilganligi va bir nechta uyushgan guruhlardan iborat bo'lishidir.

JKda jinoyatda ishtirokchilik qilganlarga javobgarlik doirasi ham belgilangan.

Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham ushbu Kodeks Maxsus qismining bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.

Oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilari hamda a'zolari tayyorgarlik ko'rilishi yoki sodir etilishida o'zlari qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan barcha jinoyatlar uchun, basharti, bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo'lsa, javobgarlikka tortiladilar.

Boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo'ladi.

Tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytib, jinoyatning oldini olish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni o'z vaqtida ko'rganligi, jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlikni istisno qiladi[4].

Jinoyatga daxldorlik deganda shaxs o'z harakatlari bilan jinoyat sodir qilishda qatnashmaydi va jinoyatga daxldorlik jinoyatda ishtirokchilik hisoblanmaydi.

Jinoyat Kodeksi 31-moddasiga muvofiq Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki jinoyat sodir etilganligi haqida aniq bila turib, oldindan va'da bermagan holda, hokimiyat organlariga xabar qilmaslik, ushbu Kodeksning 155¹ va 241-moddalarida nazarda tutilgan hollardagina javobgarlikka sabab bo'ladi.

Jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, jinoyat izlarini yoki jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni oldindan va'da bermagan holda yashirganlik ushbu Kodeksning 241-moddasida nazarda tutilgan hollardagina javobgarlikka sabab bo'ladi.

Oldindan va'da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari javobgarlikka tortilmaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jinoyat sodir etishda har qanday turda va shakllarda ishtirok etish jinoiy javobgarlikka olib keladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, JK 31-moddasida keltirilgan jinoyatga daxldorlik faqat 155¹ va 241-moddalar bilan cheklanib qolmay, boshqa jinoyatlarga daxldor bo'lganlarga ham javobgarlik belgilanishi kerak. Chunki har qanday kichik jinoyat ham o'z nomi bilan jinoyatdir.

IQTIBOSLAR/CHOCKII/REFERENCES:

1. Utemuratova S.SH. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. O'quv qo'llanma. T. "Metodist nashriyoti". 2023. 52-bet
2. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. 289-bet.
3. Qadambayeva Ozoda Umid qizi. Jinoyat huquqida ishtirokchilik instituti va javobgarlik masalasi. Maqola.
4. <https://lex.uz/docs/-111453#-179938> Jinoyat Kodeksi